

BADMINTON SPORT MUSOBAQASI O‘TKAZILDI



BADMINTON SPORT MUSOBAQASI O‘TKAZILDI

Termiz shahar maktabgacha ta’lim bo’limi va Turizm va sport bo’limi hamkorligida maktabgacha ta’lim tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2021-2022-yillarda yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari o’rtasida 26-sonli maktabning sport zalida badminton sport musobaqasi o’tkazildi.

Musobaqa yakunida 1-o’rinni 13-DMTT direktori Nargiza Mingliyeva, 2-o’rinni 29-DMTT direktori Baxtigul To’rayeva va 3- o’rinni 22-KTIMTT direktori Ozoda Polvonovalar kiritib, Termiz shahar hokimining diplomlari va qimmatbaho estalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

